20. http://www.britishcouncil.org/learnenglish
21.www.britishcouncil.org/learnenglish



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI ILMIY-METODIK TA’MINLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“Tasdiqlayman”**
**Markaz direktori**
**I.Tursunaliyev**
**“4” ____ 2021-yil**

# AMALIY XORIJIY TIL

**moduli bo‘yicha**

## O‘QUV DASTURI

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi”** malaka oshirish yo‘nalishining umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun

**Toshkent – 2021**

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan 2020-yil 31-dekabrda kelishilgan holda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2021-yil 4-yanvarda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

***Tuzuvchilar:***

| | |
|---|---|
| **H.F.Islomova** | Markazning “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **F.A.Yusupxanova** | Markazning “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi |
| **U.B.Shukurov** | Samarqand filiali “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| **F.I.Ikromxonova** | TTESI “Tillar” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. |
| **Z.Q.Tishaboyeva** | O‘zDJTU “Ingliz tili tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD |

Ishchi o‘quv dasturi “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining 2021-yil 4-yanvarda o‘tkazilgan 1 -sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

**Kafedra mudiri** **A.Xasanov**



**Dasturning axborot - metodik ta’minoti**

Modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv - metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T.: 2020-yil 23-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni T.: 2019-yil 29-oktabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10-dekabr 2012-yil PQ-1875-sonli “Chet tillarini o‘rganishni yanada takomillashtirish” qarori asosida tuzilgan qo‘llanmalar. *(«Xalq so‘zi» gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660)-son)*
5. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standarti “Chet tillari bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar” *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 20-son, 251-modda)*
6. Malcolm Mann, Steve Taylor-Knowles. Laser A1+. Student’s Book.2014
7. Mc. Carthy M. and O‘Dell, F. English Vocabulary in Use - Elementary. Cambridge: 2009.
8. Bob Bridle, Richard Gilbert., “Sport book” Second edition.2011 yil.
9. Lindsey Clan field & Kate Pickering “Global English”. The Duke of Edinburgh ESU. English language Book award 2010
10. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
11. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191


**Elektron ta’lim resurslari**


12. http://www.tdpu.uz
13. http://www.pedagog.uz
14. http://www.ziyonet.uz
15. http://www.edu.uz
16. http://www.learnenglish.com
17. http://www.world-newspapers.com About World Heritage
18. http://www.lex.uz
19. http://www.examenglish.com

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-Theme. Til aloqa (kommunikatsiya) vositasi sifatida. Xorijiy tilga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish**

**Plan:**

1.1. To explain the role of English language in the field of physical culture and sport.

1.2. To enlarge the students learning skills (reading, speaking, listening and writing).

1.3. To speak about the topic **"My Family"**.

Ingliz tilida so'zlashuvda qo'llaniladigan so'z birikmalarining ishlatilishi. Tinglovchilarga til o'rganish usullari (o'qish, gapirish, eshitish va yozish) haqida ma'lumot berish. Ingliz tilida **"Mening oilam"** mavzusi haqida gapirishga o'rgatish.

**2-Theme. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid so'z birikmalari va atamalari**

**Plan:**

2.1. To talk about types of sports.
2.2. To explain Sports terms.
2.3. To teach the learners pronouns.

Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid terminlarni o'rgatish. Ingliz tilidagi olmosh turlari va uning ishlatilishini tushuntirib berish.

**3-Theme. "Physical training lesson and mass sport at school" mavzusida suhbat tashkil etish**

**Plan:**

3.1. To teach and explain the words according to the theme physical training and mass sport.

3.2. Make a conversation on the topic: "Physical training lesson and mass sport at school "

Ingliz tilida jismoniy tarbiya va sportga oid harakatlar va mashqlarni qo'llagan holda so'z va iboralarni o'rgatish. Ingliz tilida jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlari haqida gapirish.



## Modulning maqsadi va vazifalari

**"Amaliy horijiy til" modulining maqsadi:** dasturda maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, o'z-o'ziga xizmat va gigiena, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik, bilish jarayoni, atrof-muhit to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish yo'nalishlari bo'yicha pedagogik vazifalar berilgan. Har bir yosh guruh bolalari o'quv yili oxirida egallashlari lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmi ko'rsatilgan.

Mazkur takomillashtirilgan dasturda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, hamda "Maktab ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari" dan kelib chiqib, bolani intellektual va jismoniy rivojlantirish, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, maktab ta'limidagi zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda qayta ko'rib chiqildi. Dastur maktab yoshidagi bola rivojlanishiga moslashtirildi, aniqlashtirildi, misollar bilan boyitildi. Noan'anaviy usullarda ishlash yo'llari ko'rsatildi.

Shuningdek, bolaning hayoti va sog'lig'ini himoyalash, ta'lim-tarbiya jarayonini puxta olib borish, uning taffakkur, tasavvur va nutqini rivojlantirish bilan birga, mustaqil o'rganishga, fikrlashga, ijodkorlikka, o'z shaxsini hurmat qilish, o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirishga qo'yilgan vazifalar kengaytirildi, shakl, mazmun va uslubiy tomondan boyitildi. Dasturda muhim tarbiyaviy vazifalardan biri-bolaning sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini tarkib toptirish, gigienik va harakat madaniyatini singdirib borishga alohida ahamiyat berildi.

Maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari ingliz tili xaqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishi barobarida, boshlang'ich bosqich talablari darajasida sodda suhbat olib borishi, berilgan savolning umumiy ma'nosini tushunib javob qaytarishi, gapirish (so'zlashish), ko'nikma va malakalarni hosil qilishga qaratilgan. Xorijiy tillarni o'qitishning maqsadi yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash, ongli, erkin fikrlaydigan shaxs bo'lib shakllanishida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning chet tilining atroflicha bilishining ahamiyati kattadir.

**"Amaliy horijiy til" modulining vazifalari:**

Tinglovchilariga ingliz tilini har xil o'yinlar orqali o'zlashtirishga, sport turlari va unda qo'llaniladigan iboralarni ingliz tilida talaffuz qilishni o'rgatish;

ingliz tilini amalda erkin ravishda so'zlay olishlari uchun tinglovchilarga har xil mavzuga oid so'zlardan foydalangan holda ingliz tiliga oid zarur bilimlar berish;

kundalik faol harakatlarni qo'llagan holda tinglovchilar bolalarga o'yinlar orqali bajarilishi kerak bo'lgan harakatlarni ingliz tilida o'rgatish.

## Modulni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar

Ushbu modulni o'rganish jarayonida qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, tinglovchilarida tinglab tushunish va nutq (layoqati) shakllantiriladi, ya'ni ingliz tilini o'rgatishda har xil oddiy va qiziqarli o'yin turlaridan foydalangan xolda o'rgatish.

Maktablarda tashkillashtiriladigan sport turlari bo'yicha maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarning malakasini oshirishda ingliz tilini o'zlashtirishda quyidagi yondashuvlarga asoslanadi.

**Kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv** ta'limning rivojlantiruvchi, funksional va kommunikativ xususiyatlariga ega bo'lib, o'qish jarayonida bilish faolligini oshirishga ko'maklashadi. Ushbu yondashuv ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash va faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

**Chet tili ta'limida integrativ yondashuv** ta'lim oluvchining turli faoliyat doiralaridan (shaxsiy, intellektual va kasbiy) olingan materiallardan ta'lim jarayonida teng (proporsional) foydalanish. Til va nutq materialining teng nisbatda bo'lishi, nutq faoliyatining 4 ta turi bo'yicha nutqiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar darajasini uyg'un va o'zaro bog'liq holda shakllantirishni ko'zda tutadi.

Chet tili ta'limida **kompetensiyali yondashuv** muayyan natijalarga erishish va muhim kompetensiyalarni egallashga qaratiladi. Mazkur yondashuvda ta'lim jarayoni bu - faoliyatning mustaqil, o'qish-bilish, ijtimoiy va madaniy-hordiq chiqarish sohalarida kasbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyaga erishish maqsadida bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat tajribasini egallash hisoblanga holda tinglovchi:

ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni;

jamiyatni va ta'limni axborotlashtirish texnolgiyalarini;

jismoniy tarbiya va sportga oid fanlarini o'qitishda so'ngi yillarda erishilgan yutuqlarni;

sportga oid va jismoniy tarbiya nazariyasi fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashni;

o'qituvchining innovatsion faoliyatini;

zamonoviy ta'lim metodlarini;

elektron pedagogik asoslarini;

pedagogik mahorat asoslarini bilishi kerak.

## Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Ushbu modul yo'nalishi doirasida berilayotgan mavzular jihatidan va bog'chalardagi pedagog kadrlarga va yo'riqchilarga qo'yiladigan davlat



talablarini, zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning turlarini bilishlari, bola shaxsi va uning xususiyatini hisobga olgan holda ta'limda individuallik va differensial yondashuvga erishuvlari va ta'lim jarayonlarida muammoli ta'lim, hamkorlik texnologiyasi va interfaol usullarini amalda qo'llay olishlari, axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu amaliy xorijiy til moduli o'quv rejadagi "Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari", "Pedagogning professional kompetentligi va mahorati", "Jismoniy tarbiya va sportda xorijiy tajribalar" modullari bilan uzviy bog'liq.

## Modulning ta'limdagi o'rni

Maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari malakasini oshirish kursida ularni xorijiy tillarni yanada mukammal o'rganishga, va shu bilan bir qatorda sport hamda jismoniy tarbiya sohasida xorijiy ta'lim tajribasini shakllantirishda xizmat qiladi.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

| № | Modul mavzulari | O'quv yuklamasi, soat | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | Auditoriya o'quv yuklamasi | | | | Mustaqil ta'lim |
| | | | Jami | Jumladan | | | |
| | | | | Nazariy | Amaliy mashg'ulot | Ko'chma mashg'ulot | |
| 1 | Til aloqa (kommunikatsiya) vositasi sifatida. Xorijiy tilga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish. | 2 | 2 | | 2 | | |
| 2 | Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid so'z birikmalari va atamalari. | 2 | 2 | | 2 | | |
| 3 | "Physical training lesson and mass sport at school" mavzusida suhbat tashkil etish. | 2 | 2 | | 2 | | |
| | JAMI: | 6 | 6 | | 6 | | |